

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 140 (1739), 2026-yil 11-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



IKKI TOMONLAMA MADANIY-MA’RIFIY ALOQALAR YUKSAK DARAJAGA OLIB CHIQILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyul kuni Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, shayxulislom Olloshshukur Poshshozodani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari shayxulislom tomonidan tuhfa etilgan, O‘zbekiston va Ozarbayjon rahbarlarining umumiy sa’y-harakatlariga bag‘ishlangan “Qardoshlik va ittifoqchilikning oliy nuqtasi” kitobi uchun minnatdorlik bildirdi.

Muloqot davomida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash, yoshlarning ma’naviy tarbiyasini yuksaltirish

va boshqa masalalar atroficha muhokama qilindi.

O‘zbekiston Prezidenti ikki tomonlama madaniy-ma’rifiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim takliflarni ilgari surdi.

Islomning asl insonparvarlik mohiyatini yoshlarga sodda va qiziqarli tarzda tushuntirish uchun raqamli platformalar va

interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanishda ilmiy salohiyatni birlashtirish zarurligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari Olloshshukur Poshshozodaga musulmon dunyosi ilm-faniga qo‘shayotgan ulkan hisssasi uchun O‘zbekistonning “El-yurt hurmati” ordenini topshirdi.

O‘zA

NUFUZLI XALQARO TUZILMA BILAN AMALIY MUNOSABATLAR IZCHIL RIVOJLANIB BORMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Islom dunyosi ta’lim, fan va madaniyat tashkiloti (ICESCO) bosh direktori Salim al-Malikni qabul qildi.

O‘zbekiston va Islom hamkorlik tashkilotining ushbu nufuzli instituti o‘rtasida ko‘p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xalqaro tuzilma bilan amaliy hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida ICESCO kafedrasini faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda Toshkentda

tashkilotning ofisi ochildi. Fevral oyida Islom olami madaniy merosi qo‘mitasining navbatdagi yig‘ilishi yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizning 7 ta moddiy va nomoddiy meros obyekti ICESCO ro‘yxatiga kiritildi.

Muloqotda madaniy yodgorlik va qo‘lyozmalarni restavratsiyalash, muhofaza qilish hamda raqamlashtirish, yurtimizning boy tarixiy merosini xalqaro media

platformalari orqali keng targ‘ib qilish, shuningdek, qo‘shma tadbirlar o‘tkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti xalqimizning boy madaniy merosini keng ommalashtirishga qo‘shgan shaxsiy hisssasi uchun Salim al-Malikni yuksak mukofot — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirladi.

O‘zA

INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM DASTURLARI BOSQICHMA-BOSQICH KENGAYTIRILIB, XALQARO TALABLARGA MUVOFIQLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro ta’lim standartlari asosida o‘rta maxsus, kasbiy va oliy ta’lim dasturlarini joriy etish, nufuzli xorijiy universitetlar bilan akademik hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda so‘nggi sakkiz yilda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Jumladan, oliy ta’lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 44 foizga, talabalar soni esa 270 ming nafardan 1,7 million nafarga yetdi. Joriy yilning o‘zida 643 ta texnikumning 100 tasida Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Xitoy va Koreya kabi davlatlarning ilg‘or kasbiy ta’lim dasturlari joriy etilmoqda.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti hamda O‘zbekiston Milliy universiteti nufuzli xalqaro reytinglarda dunyoning eng yaxshi mingta oliy ta’lim muassasasi qatoridan o‘rin oldi. Oliygo‘hlardagi 157 ta ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazildi.

Shu bilan birga, ta’lim sifatini yanada oshirish, milliy oliygo‘hlarining xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirish va bitiruvchilarning global mehnat bozorida munosib o‘rin egallashi uchun ishlarni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi qayd etildi.

2030-yilga qadar kamida 5 ta oliygo‘hni umumiy reyting bo‘yicha, yana 10 tasini fan yo‘nalishlari kesimida dunyoning eng yaxshi 500 ta universiteti qatoriga kiritish maqsad qilingan. Shuningdek, 100 ta oliygo‘h dasturini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish, kamida 150 ta texnikumda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish rejalashtirilgan.

Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari va pedagoglarining kamida 30 foizini xorijiy til, kasb va mutaxassislik bo‘yicha xalqaro sertifikatlar bilan ta’minlash, texnikumlarning 2,5 ming nafar hamda oliygo‘hlarining 20 ming nafar pedagogini xorijda malaka oshirishga yuborish vazifalari belgilangan.

Taqdimotda integratsiyalashgan ta’lim dasturlarini keng joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda qator oliygo‘hlarda xorijiy universitetlar bilan qo‘shma dasturlar yo‘lga qo‘yilgan. Ammo ular asosan ikki oliygo‘h o‘rtasida tashkil etilib, talabalarning ta’lim yo‘nalishini erkin tanlash imkoniyati cheklangan.

Xalqaro amaliyotda integratsiyalashgan dasturlar talabaga o‘qish davomida bir nechta universitetda ta’lim olish, turli mamlakatlar akademik muhiti va ta’lim standartlaridan foydalanish imkonini beradi.

Toshkent shahridagi Inha universiteti va Toshkent arxitektura-qurilish universitetida

biznes boshqaruvi, arxitektura hamda axborot texnologiyalari yo‘nalishlarida Buyuk Britaniyaning 10 dan ortiq oliygo‘hi bilan hamkorlikda shunday dasturlar joriy etilgan. Natijada 371 nafar talaba “1+3”, “2+2” va “3+1” modellari asosida tahsil olib, Britaniya standartlariga mos diplom olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Mazkur tizim orqali talabalarining xorijda o‘qish va yashash xarajatlarini 10 barobargacha qisqartirish mumkinligi qayd etildi. Hozirgi kunda minglab o‘zbekistonlik talaba Buyuk Britaniyada to‘rt yillik ta’lim dasturlarida tahsil olmoqda. Ularning har biri uchun o‘qish va yashash xarajatlari yiliga 50 ming dollargacha yetadi.

Shu munosabat bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti tarkibida Integratsiyalashgan dasturlar oliy maktabini tashkil etish taklif qilindi.

Oliy maktabda ta’lim jarayoni Buyuk Britaniyaning Nortumbriya va Hartfordshir universitetlari dasturlari asosida yo‘lga qo‘yiladi. Keyingi bosqichda Sapiyensa, Sautgempton, Glazgo kabi dunyoning nufuzli oliygo‘hlari akademik talabalariga moslashtirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish ko‘zda tutilgan.

Oliy maktabga akademik, moliyaviy va tashkiliy mustaqillik beriladi. Davlat idoralari, hamkor oliygo‘hlar hamda yirik kompaniyalar vakillaridan iborat kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Bitiruvchilarga O‘zbekistonda tan olinadigan xorijiy hamkor oliygo‘h va oliy maktab diplomi beriladi.

Shuningdek, oliy maktab va hamkor ta’lim muassasalarida Britaniya standartlariga muvofiq 8-darajagacha bo‘lgan ta’lim dasturlarini joriy qilish, rahbar kadrlar uchun strategik fikrlash, liderlik, raqamli boshqaruv, qaror qabul qilish va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Taqdimotda maktab, akademik litsey, texnikum va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydigan “2+3”, “1+2”, “2+1”, “1+3”, “2+2”, “3+1” kabi ta’lim modellari ko‘rib chiqildi.

Bunda 9-sinf bitiruvchisi maktab, akademik litsey yoki texnikumda ikki yil ta’lim olib, keyingi uch yilni mahalliy yoki xorijiy hamkor oliygo‘hda davom ettirishi mumkin bo‘ladi. Texnikum bitiruvchilari esa ta’limni qisqartirilgan dastur asosida universitetda davom ettirish imkoniga ega bo‘ladi.

Integratsiyalashgan dasturlarni tibbiyot, energetika, san’at va qishloq xo‘jaligi kabi ustuvor yo‘nalishlarga ham kengaytirish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Xalqaro malakalar va baholash markaziga integratsiyalashgan dasturlarni nufuzli TOP-100 oliygo‘hlar akademik talabalariga moslashtirish, ular bilan “1+3” va “2+2” shaklidagi dasturlarni ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Markaz huzurida xorijiy ekspertlardan iborat doimiy ishchi guruh tashkil etilib, ishchi guruh 2027-yil yakuniga qadar yetakchi xorijiy oliygo‘hlar diplomini beradigan kamida ikkita ta’lim dasturlari markazini tashkil etadi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasining stipendiya dasturini ham yangi tizimga moslashtirish taklif qilindi. Endilikda dastur Integratsiyalashgan dasturlar oliy maktabi va boshqa mahalliy oliygo‘hlardagi integratsiyalashgan ta’lim yo‘nalishlarini ham qamrab oladi.

Shuningdek, dunyoning nufuzli universitetlariga shartli qabul qilingan yoshlarning O‘zbekistondagi oliygo‘hlarda birinchi kurs yoki “Foundation” dasturida o‘qish xarajatlarini qoplab berish mexanizmi joriy etiladi. Bu yoshlarga ta’limni mamlakatimizda boshlab, keyinchalik xorijda davom ettirish imkonini beradi.

Taqdimotda yetakchi xorijiy oliygo‘hlar joylashadigan Toshkent xalqaro universitetlar shaharchasini tashkil etish taklifi muhokama qilindi.

Bunda Qatardagi “Education City”, Birlashgan Arab Amirliklaridagi Dubay xalqaro akademik shahri va Koreya Respublikasidagi Incheon global kampusi tajribasidan foydalanish taklif qilindi.

Universitetlar shaharchasida nufuzli xorijiy oliygo‘hlar filiallarini jalb qilish, kampuslar va talabalar turar joylarini barpo etish, litsenziya talabalarini soddalashtirish, grant va stipendiyalar ajratish, bojxona va soliq imtiyozlarini qo‘llash, shuningdek, royalti to‘lovlarining bir qismini qoplab berish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish topshirildi.

Asosiy maqsad O‘zbekistonni xalqaro ta’lim dasturlari va standartlari keng joriy etilgan, mintaqadagi yetakchi ta’lim markaziga aylantirish ekani ta’kidlandi.

Prezidentimiz takliflarni ma’qullab, integratsiyalashgan ta’lim dasturlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, ularning sifatini xalqaro talablarga muvofiq ta’minlash, nufuzli xorijiy universitetlar bilan uzoq muddatli akademik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘zA



Mushtarak maqsadlar



MAZMUNAN YANGI DAVRGA QADAM QO‘YGAN HAMKORLIK

Belarus Respublikasi Sharqiy Yevropadagi muhim sanoat va logistika markazlaridan biri. 207,6 ming kvadrat kilometrdan iborat mamlakat hududining 44 foizini o‘rmonlar, 38 foizini qishloq xo‘jaligi yerlari tashkil etadi. Aholisi 9 milliondan ortiq. 2025-yilda mamlakat ichki mahsuloti 90 milliard dollarni tashkil etdi.

O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi munosabatlar bugun mutlaqo yangi sifat va mazmunga ega. Ikki mamlakat hamkorligi izchil rivojlanib, amaliy natijalar bilan boyib bormoqda.

Biz uchun Belarus sanoat, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, logistika, oziq-ovqat sanoati kabi yo‘nalishlarda muhim

tajribaga ega iqtisodiy muhim hamkor hisoblanadi.

Ikki mamlakat yetakchilarining muntazam uchrashuvlari va amaliy muloqoti natijasida siyosiy aloqalar faollashdi. Savdo-iqtisodiy hamkorlik kengaydi.

▶ Davomi 2-betda

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

Yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi, natijadorligi, eng avvalo, qabul qilinayotgan qonun, farmon, qaror va topshiriqlarning hududlarda o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga bog‘liq. Shu bois, ijro intizomini yanada mustahkamlash, bu borada qat’iy tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, joylardagi hokimlar va hokimliklar mas’ul xodimlarining dunyoqarashini o‘zgartirish asosiy vazifa sifatida belgilab berilgan.

IJRO INTIZOMI —



DAVLAT BOSHQARUVINING TAYANCHI VA YUKSALISH OMILI

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, eksport hajmi va geografiasini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratilib, bu borada ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Namangan viloyati hokimligida ham ijro intizomini yanada yaxshilashga qaratilgan

tizim yaratilgan. Shu maqsadda Namangan viloyati, shahar va tumanlar hokimliklari, respublika tashkilotlarining hududiy boshqarmalarida ijro intizomiga rioya etilishi, O‘zbekiston Prezidenti, Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan hokimlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi qattiq nazoratga olingan.

▶ Davomi 3-betda



Mushtarak maqsadlar

MAZMUNAN YANGI DAVRGA QADAM QO‘YGAN HAMKORLIK



Abduraim ULUG‘OV,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Xususan, 2018-yil 12-13-sentabr kunlari Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi. 2019-yil 31-iyul — 1-avgust kunlari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ushbu davlatga rasmiy tashrifni amalga oshirdi. 2023-yil 15-sentabr kuni Belarus yetakchisi amaliy tashrif bilan mamlakatimizga keldi va SHHTning Samarqand sammitida ishtirok etdi. 2024-yil 7-9-fevral kunlari Belarus yetakchisi rasmiy tashrif bilan yana mamlakatimizda bo‘ldi.

Bu kabi tashriflar ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qiladigan natijalari bilan ahamiyatli. Misol uchun, 2017-yilda 181,7 million dollari tashkil etgan tovar ayirboshlash hajmi 2025-yilda ilk bor 1 milliard dollarga yetdi. O‘zbekiston eksporti ham shu davrda 26,8 million dollardan 186,5 million dollarga oshdi.

Ijobiy dinamika 2026-yilda ham davom etmoqda. Savdo tarkibi tobora diversifikatsiyalashmoqda, sanoat mahsulotlari, tayyor buyumlar, oziq-ovqat, kimyo sanoati, mineral yoqilg‘i mahsulotlari, mashina va transport uskunalari, xizmatlar, xomashyo o‘zaro savdoning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etmoqda.



Mulohaza

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda inson qadrini ulug‘lash, aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, shahar qiyofasini zamonaviy me‘moriy yechimlar asosida yanada chiroyli va qulay qilish hamda tabdirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish yo‘lida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.



Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati

Yangi yo‘llar, ko‘priklar va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining barpo etilishi, ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi, transport infratuzilmasining takomillashtirilishi, xizmat ko‘rsatish va servis sohalarining jadal rivojlanishi poytaxtning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, eng muhimi, yurtdoshlarimiz hayot sifati va farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Oxirgi o‘n yillikda poytaxtimizning barcha tumanlari kabi Sergeli tumani ham keng ko‘lamli bunyodkorlik va yangilanishlar markaziga aylandi. Bugun bu hudud nafaqat zamonaviy qiyofasi, balki aholi uchun yaratilayotgan qulay yashash muhiti, rivojlangan infratuzilmasi bilan e‘tibor qozonmoqda.

Tumanda aholi farovonligini yuksaltirish, transport infratuzilmasini takomillashtirish hamda tabdirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, metro tarmog‘ining kengayishi va jamoat transporti tizimining zamonaviylashtirilishi sergelliklar hayotiga sezilarli yengillik olib kirdi. Yangi avtobuslar harakati yo‘lga qo‘yilishi, metro yo‘nalishlarining kengayishi tufayli



BUNYODKORLIK VA YANGILANISHLAR MARKAZIGA AYLANAYOTGAN SERGELI

aholining shahar markazi va boshqa hududlar bilan transport aloqasi yanada qulay, tezkor va xavfsiz tus oldi.

Ayniqsa, hududda zamonaviy turar joy majmualari, umumta‘lim maktablari, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, tibbiyot muassasalari hamda savdo va xizmat ko‘rsatish markazlarining barpo etilayotgani aholining ortib borayotgan ehtiyojlarini ta‘minlash, hayot sifati va turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bugungi Sergeli — izchil taraqqiylot, bunyodkorlik va yangilanishlar timsoli sifatida poytaxtimizning eng jadal rivojlanayotgan tumanlaridan biriga aylanmoqda.

Prezidentimiz shu yil 4-iyul kuni Sergeli tumanida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishgan mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, hududlarni kompleks rivojlantirish va aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlarning izchil davom etayotganini yana bir bor namoyon etdi.

Ushbu tashrif, eng avvalo, hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalarining samaradorligini joyida baholash, aholi uchun yaratilayotgan sharoitlar sifatiga e‘tibor qaratish hamda yangi tashabbuslarni belgilab olishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, har bir hududdagi bunyodkorlik ishlari markazida inson manfaati turganini, shaharsozlik, infratuzilma va xizmatlar sifati aholi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilayotganini tasdiqlaydi.

Bugun tumanning Yangi Sergeli ko‘chasi zamonaviy shaharsozlik va xizmatlar infratuzilmasini uyg‘un mujassam etgan, aholi hayotiga qulaylik bag‘ishlovchi yangi markam sifatida shakllanmoqda. Bu yerda tashkil etilgan 24/7 rejimida faoliyat yurituvchi turizm, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari nafaqat aholiga sifati



va zamonaviy xizmatlardan istalgan vaqtda foydalanish imkonini yaratayotir, balki kichik biznes va xususiy tabdirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda hudud iqtisodiy faolligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Umumiy qiymati 18,7 milliard so‘mlik mazkur loyiha doirasida Yangi Sergeli ko‘chasining 2,1 kilometr qismi to‘liq rekonstruksiya qilinib, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va obodonlashtirish ishlari zamonaviy talablar asosida yangilandi. Natijada mazkur hudud savdo, umumiy ovqatlanish, dam olish va ko‘ngilochar xizmatlarni o‘zida mujassam etgan, kechayu kunduz hayot qaynaydigan zamonaviy jamoat markaziga aylandi.

Aholi dam olishi va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 10 dan ortiq bolalar maydonchasi, 8 ta vorkaut zonasi, kitob do‘koni hamda nuroniylar mas-kani tashkil etilgan aholining mazmunli hordiq chiqarishi, jismoniy faolligini oshirishi va sog‘lom turmush tarzini qaratib turishga

zamin yaratadi. Qolaversa, bolalarga xavfsiz va zamonaviy muhitda voyaga yetishi, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, keksa avlod vakillarining mazmunli vaqt o‘tkazishi, eng muhimi, mahallada ijtimoiy hamjihatlik muhitini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi.

Prezidentimiz mahalla bo‘ylab milliy me‘morchilik an‘analari uyg‘unlashgan holda ta‘mirlangan xonadonlar, fayz-tarovat kasb etgan ko‘chalar hamda aholi uchun yaratilgan zamonaviy va qulay shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Mahalla faollari va fuqarolar bilan samimiy muloqot qilib, ularning fikr-mulohazalari, orzu-intilishlari, takliflarini tingladi. Bu esa xalq bilan ochiq va bevosita muloqotga tayangan davlat boshqaruvi tamoyilining yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi.

Aytish joizki, inson qadrini ulug‘lash va aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan izchil islohotlar bugun mahallalar qiyofasida, odamlarning kundalik hayotida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘zgarish mahallasi

bu boradagi yangilanishlarning yorqin namunasidir.

Davlatimiz rahbari ushbu mahalladagi bunyodkorlik ishlari hamda yer usti metro yo‘nalishi ostida tashkil etilgan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari faoliyati bilan ham tanishdi.

Yurtimizning barcha hududlari qatori mazkur mahalla ham tom ma‘noda yangi qiyofa kasb etmoqda. Yillar davomida to‘planib qolgan muammolar bosqichma-bosqich bartaraf etilib, aholi uchun zamonaviy infratuzilma, obod va fayzli muhit yaratildi. Ushbu euzu o‘zgarishlar mahalla hayotida yangi ruh va mazmun bag‘ishladi.

Xususan, 10 ta bolalar maydonchasi, mini-futbol maydoni, 2 ta salomatlik hududi barpo etilgan nafaqat ularning dam olish va sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirdi, balki mahallada sog‘lom, faol va ahil hayot muhitini qaratib turishga xizmat qilayotgan muhim ijtimoiy maskanlarga aylandi.

Mahallada tashkil etilgan zamonaviy kogeneratsiya markazi esa kuz-qish mavsumida mahallaning issiqlik va elektr energiyasi ta‘minoti barqarorligiga xizmat qiladi. Kogeneratsiya texnologiyasi energiya samaradorligini oshirib, isrofgarchilikni kamaytiradi.

Mahallaning umumiy infratuzilmasi tubdan yangilaniib, 1,4 kilometr piyodalar yo‘laklari barpo etilgani, 12 ta ko‘p qavatli uyning fasad qismi ta‘mirlangan holda, ichki yo‘llarga asfalt yotqizilgani aholi uchun xavfsiz, qulay va obod yashash muhitini shakllantirish bilan birga, mahalla ahlining turmush sifati va kundalik hayot qulayligini sezilarli darajada oshirdi. Bu jihatlar inson manfaatini ustuvor qo‘ygan islohotlarning amaliy samarasini yaqqol namoyon etmoqda.

Hududni ko‘kalamzorlashtirish maqsadida

2 ming 720 tup manzarali daraxt va buta ko‘chatlari ekilgani aholi uchun musaffo va sog‘lom yashash muhitini shakllantirish, hududning ekologik barqarorligini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda. Bu atrof-muhitni asrash va kelgusi avlod uchun yanada obod, yashil va yashash uchun qulay shahar muhitini barpo etishga qaratilgan euzu sa‘y-harakatlarning amaliy ifodasi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Prezidentimiz “mahalla yetilligi” va hudud faollari bilan samimiy subhlatashib, tashrifdan asosiy maqsad aholi bilan bevosita muloqot qilish, taklif va tashabbuslarni tinglash ekanini alohida ta‘kidladi. Bularning barchasi inson qadrini ulug‘lash, xalqni rozi qilish, hududning beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda yangi bosqichni boshlab beradi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz raisligida Toshkent shahri, xususan, Sergeli tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va mahallalarda xavfsiz muhit yaratish masalalari yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishi esa, eng avvalo, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz. O‘z navbatida, mahallalarda xavfsiz muhit yaratish, jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Yig‘ilishda Sergeli va Yangiayot tumanlari aholisini qiyab kelayotgan suv tozalash inshooti atrofidagi badbo‘y hid masalasiga ham ijobiy yechim topildi. Xususan, 1-sentabrgha oqova suv qabul qilish inshootiga zamonaviy filtrlash uskunalarini o‘rnatib, mazkur muammoni bartaraf etish vazifasi qo‘yilgani, eng avvalo, aholi salomatligi va turmush sifatiga sabbal ta‘sir ko‘rsatayotgan ekologik muammoni bartaraf etish, yashash muhitini sog‘lomlashtirish hamda hududda ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Bugungi kunda Toshkent tom ma‘noda yangi qiyofa kasb etmoqda. Shaharning barcha hududlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, zamonaviy infratuzilmaning shakllanishi hamda obodonlashtirish borasidagi islohotlar poytaxt qiyofasini tubdan o‘zgartirmoqda. Tashrif davomida belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va samarali ijro etilishida deputatlar korpusining faol ishtiroki shahar taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ilgari surilayotgan har bir tashabbus zamirida poytaxtimizni zamon talablariga to‘la javob beradigan, aholi uchun qulay va obod makonga aylantirishdek ulug‘vor maqsad mujassam. Bu yo‘ldagi hamjihatlik va mas‘uliyat esa Toshkentning kelajakda yanada gullab-yashnashga xizmat qiladi.



Mahfuza YO‘LDOSHEVA,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

Davlatimiz rahbarining Gruziyaga davlat tashrifi doirasida Gruziya Prezidenti Mixail Kavelashvili bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar ikki mamlakat munosabatlari tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. So‘nggi 23 yil ichida O‘zbekiston Prezidentining Gruziyaga amalga oshirgan ilk davlat tashrifi nafaqat diplomatik voqea, balki Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasidagi strategik muloqotning yangi geosiyosiy formati sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tashrif diplomatik geografyaning yangi qiyofasini shakllantirdi, desak ayni haqiqat. Endi davlatlar o‘rtasidagi masofa kilometrlar bilan emas, manfaatlar uyg‘unligi bilan o‘lchanadi.

Prezidentimiz Tbilisidagi muzokaralarda “Bu O‘zbekiston Prezidentining so‘nggi 23 yildagi Gruziyaga ilk davlat tashrifidir. Bu tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishiga ishonaman”, dedi. Bu fikr tasodifiy diplomatik bayonot emas. U yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual mohiyati — ishonchli sheriklik, o‘zaro hurmat va uzoq muddatli manfaatlariga asoslangan munosabatlarni anglatadi.

Diplomatiya — bu faqat kelishuvlar emas, balki kelajakka qaratilgan ishonch samoyasidir. Muzokaralar chog‘ida davlat rahbarlari O‘zbekiston va Gruziya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollarini muhokama qilarkan, mamlakatimiz yetakchisi ushbu tashrifning tarixiy ahamiyatiga alohida to‘xtaldi.



Nuqtayi nazar

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida iqtisodiy diplomatiya davlat tashqi siyosatining hal qiluvchi vositasiga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘tgan yili ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmining 270 million dollarga yetgani, qo‘shma korxonalar sonining ortib borayotgani va Gruziyaning yetakchi raqamli banki O‘zbekiston bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgani o‘zaro ishonchning iqtisodiy ifodasi. Shuningdek, Toshkent — Tbilisi va Toshkent — Batumi o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar, Toshkent shahrida o‘tkazilgan Gruziya madaniyati kunlari xalq diplomatiyasining tobora mustahkamlanayotganidan dalolat.


O‘zbekiston va Gruziya xalqlarini nafaqat diplomatik munosabatlar, balki chuqur tarixiy va madaniy rishtalar ham bog‘lab turadi. Buning ramziy ifodasi sifatida Toshkent shahrining markaziy va eng gavjum ko‘chalaridan biri buyuk gruzin mutafakkiri Shota Rustaveli nomi bilan atalishi alohida e‘tiborga loyiq. Bu buyuk adib xotirasiga bildirilgan ehtirom bo‘lish bilan birga xalqlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ma‘naviy yaqinlik va ko‘p yillik do‘stlik munosabatlarining yorqin timsoli.

Shu ma‘noda, tashrif doirasida Tbilisi shahrida buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haykalining tantanali ochilishi O‘zbekiston — Gruziya munosabatlari tarixida alohida sahifa bo‘ldi. Bu voqea ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik faqat iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan cheklanmasdan, umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros va ma‘naviy yaqinlikka ham tayanayotganining yorqin ifodasidir.

Diplomatiyada bunday ramziy qadamlar ba‘zan o‘nlab siyosiy bayonotlardan ham kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi. Zero, haykallar toshdan emas, xalqlar xotirasi va do‘stligidan bunyod etiladi.

Muzokaralarda Poti va Batumi portlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali tashqi

Har bir davlatning xalqaro maydondagi nufuzi nafaqat uning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy qudrati, balki tashqi siyosatining uzoqni ko‘ra bilishi, diplomatiyasining madaniyati va milliy manfaatlarini himoya qilishdagi qat‘iyati bilan ham belgilanadi. Bugungi murakkab va tez o‘zgarayotgan geosiyosiy muhitda davlatlar o‘rtasidagi muloqot har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda



Joriy yilda yalpi hududiy mahsulot hajmini 100,9 trillion so‘mga etkazish, byudjetga 4,8 trillion so‘m jalb qilish, 80 ming kishini doimiy ish bilan ta’minlash va aholi daromadlarini oshirishni rejalashtirganimiz.

IJRO INTIZOMI —



Shavkat ABDURAZZOQOV,
Namangan viloyati hokimi

Boshlanishi 1-betda

Bu ishlar O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etilmoqda. Haftaning har juma kuni hokimning ijro intizomiga mas’ul birinchi o‘rinbosari, haftaning har dushanba kuni hokim huzurida, shuningdek, haftaning har chorshanba va shanba kunlari Bosh vazir maslahatchisi huzurida muntazam tanqidiy va tahliliy muhokama jarayonida topshiriqlarning ijrosini o‘z muddatida, to‘liq va sifati ta’minlash yuzasidan barcha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Namangan viloyati hokimligiga yuklatilgan topshiriqlar ijrosini sifati ta’minlash yuzasidan har oy uchun kalendar-reja hamda “yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, ijro uchun barcha darajadagi hokimlar va mas’ul xodimlarga etkazish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida “Ijro.gov.uz” elektron tizimi orqali jami 358 ta qonunchilik hujjati, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 58 ta farmoni, 140 ta qarori, 4 ta farmoyishi, 69 ta bayoni, Prezident Administratsiyasi rahbarining 5 ta farmoyishi va bayoni, 35 ta rezolyutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 47 ta qarori kelib tushgan. Mazkur hujjatlar bilan Namangan viloyati hokimligiga yuklatilgan jami 1032 ta topshiriq ijrosi to‘liq ta’minlandi.

Viloyatda har bir qarorning amaliy natijasiga alohida e’tibor qaratiladi. Asosiy mezon aholi roziligi va islohotlarning hayotdagi samarasidir.

Rahbarlardan talab etilayotgan eng muhim jihat — shaxsiy mas’uliyat va tashabbuskorlik. Bugungi kunda vaqtni boy berishga yoki vazifalarni orqaga surishga hech qanday asos yo‘q. Prezidentimiz

islohotlar natijasi, avvalo, eng quyi bo‘g‘inda sezilishi kerakligini, agar tuman yoki shahar darajasida o‘zgarish bo‘lmasa, har qancha urinmaylik, u kutilgan samarani bermasligini alohida ta’kidlaydi.

Bu fikr har bir rahbar uchun dasturul-amal bo‘lib xizmat qilishi lozim. Chunki xalq davlat siyosatining samarasini aynan tumanida, mahallasida va o‘z hayotida his qilishi kerak.

Prezidentimiz joriy yil 23-iyun kuni Namangan viloyatiga tashrif buyurib, viloyatda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari, shuningdek, yirik investitsiya loyihalari bilan tanishgandi.

Tashrif davomida 175 million dollar hisobiga Namangan xalqaro aeroportida qurilayotgan yangi yo‘lovchi terminali bilan tanishdi. Bu yerda maydoni 22,6 ming kvadrat metr bo‘lgan uch qavatli terminal barpo etilib, soatiga 1,2 ming, yiliga 3 milliondan ortiq yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi, 550 ta yangi ish o‘rni tashkil etiladi, kunlik quvvati 50 tonna bo‘lgan kargo terminali ishga tushiriladi.

To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 10 gektar maydonda tashkil etilayotgan, qiymati 35 million dollarlik Namangan qo‘ychilik klasteri faoliyati bilan ham tanishdi. Klasterda dastlab 15 ming bosh nasldor qo‘y boqilib, keyinchalik 35 ming boshga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 121 gektar maydonda tashkil etilgan “Uychi parranda” korxonasi bo‘ldi. Bu yerda 50 million dollar investitsiya hisobiga 60 ming bosh naslli tovuq parvarishlanmoqda, kuniga 60 ming dona tuxum olish va 50 ming bosh jo‘ja ochildirish imkoniyati yaratilgan.

Parrandachilik komplekslarida har bir siklda 120 tonna go’sht ishlab chiqarilmoqda. Loyihani kengaytirish natijasida viloyatdagi parrandalar soni 12 millionga yetkazilib, mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Tashrif doirasida Yangi Namangan shaharchasidagi 1,7 gektar maydonda xitoylik hamkorlar bilan 17 qavatli AT majmuasi qurilishiga tamol toshi qo‘yildi.

Majmuada ta’lim, eksport, kovorking, startap akseleratori va ofis xizmatlari joylashtirilib, 2 ming yosh yuqori daromadli ish bilan ta’minlanib, AT xizmatlari hajmi 500 milliard so‘mga, eksport hajmi esa 30 million dollarga yetkaziladi.

Shundan so‘ng Namanganning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi muhokama qilindi. So‘nggi yillarda viloyat sanoat hajmi 4,6 trillion so‘mdan 40 trillion so‘mga yetgani qayd etildi.

Joriy yilda yalpi hududiy mahsulotni 9,2 foiz, sanoatni 9 foiz, xizmatlarni 17 foiz va qishloq xo‘jaligini 6,8 foiz oshirish vazifasi belgilab berildi.

Shuningdek, viloyatga 4,5 trillion so‘m byudjet mablag‘i ajratilgan, kichik va o‘rta biznes uchun 6,5 trillion so‘m resurs yo‘natirilmoqda. Yil yakuniga qadar 80

ming aholini ish bilan ta’minlash, 314 ming fuqaroning daromadini oshirish va 21 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan. Joriy yilda Namanganga 5 milliard dollar investitsiya jalb qilish va eksportni 1,2 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

223 ta obyektga 430,7 milliard so‘m evaziga 800,2 kilometr ichki yo‘lni ta’minlash belgilangan, bugungi kunga qadar 406,2 kilometr yo‘lda ta’minlash ishlari bajarildi.

Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston qiyofasidagi mahalla” dasturi doirasidagi keng qamrovli sa’y-harakatlar mahallalarning tashqi qiyofasi va infratuzilmasini tubdan o‘zgartirishga xizmat qilmoqda.

Joriy yilda 8210 ta xonadonli 139 ta ko‘p kvartirali uy qurilishi rejalashtirilgan, ayni paytga qadar 1698 ta xonadonli 28 ta ko‘p qavatli uy-joy foydalanishga topshirildi.

Viloyatda umumiy maydoni qariyb 805 gektar bo‘lgan 73 ta kichik sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, maydoni 127 gektarni tashkil etuvchi 18 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi tashkil qilingan. Ulardagi 1294 ta investitsiya loyihasiga umumiy hisobda 7,4 trillion so‘mdan ziyod sarmoya jalb etilgani hudud iqtisodiyotiga ishonchning yorqin ifodasidir.



Namanganda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, er va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash borasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohadaqi islohotlar mahsulot hajmini oshirish, aholi bandligi va daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda.

2026-yil yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari hamda xizmatlarining umumiy hajmini 44,8 trillion so‘mga etkazish rejalashtirilgan.

Paxtachilik va g‘allachilikda yuqori natijalar qayd etilmoqda. O‘tgan mavsumda 224 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi, 560 ming tonnadan ziyod don etishtirildi. Bu yil ham 645,5 ming tonnadan ziyod don hosili olish ko‘zda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Bugun viloyatda qariyb 4 ming maktab va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 225 mingdan ortiq bola tarbiyalanmoqda.

Ta’lim sohasida viloyatimiz yoshlari respublika va xalqaro olimpiadalarda yuqori natijalarga erishmoqda. Misol uchun, O‘zbekistonda ilk marotaba o‘tkazilgan “Buyuk Sharq Renessansi” xalqaro olimpiadasida Kosonsoy tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning 9-sinf



o‘quvchisi Madina Karimjonova oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Dunyoning 40 dan ziyod davlatidan 900 ga yaqin o‘quvchi yosh qatnashgan Osiyo — Tinch okeani mintaqasi xalqaro informatika olimpiadasida o‘zbekistonlik 4 nafar yosh dasturchi yuqori natijalarni qayd etdi. Xususan, Namangan shahridagi prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Ulug‘bek Rahmatullayev munosib ishtiroki bilan bronza medalga sazovor bo‘ldi.

Joriy yilda 1,2 million kishi ommaviy sport harakatiga jalb etilgani sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish borasidagi ishlar samarasini namoyon etmoqda.

Yil boshidan buyon o‘tkazilgan respublika musobaqalarida sportchilarimiz 666 ta medalni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, jahon va Osiyo chempionatlari hamda xalqaro musobaqalarda 69 ta medalga ega bo‘ldi.

Sog‘liqni saqlash sohasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayni davrda viloyatda 826 ta tibbiyot muassasasi aholiga xizmat ko‘rsatmoqda. Davlat va xususiy sektor hamkorligi tufayli tibbiy xizmatlar qamrovi va sifati sezilarli darajada oshdi. Kardiologiya, travmatologiya, onkologiya, neyroxirurgiya va oftalmologiya sohalarida zamonaviy texnologiyalar joriy etildi.

Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filiali Avstriyaning “AME international” xalqaro tashkiloti bilan tuzilgan shartnomaga asosan, umumiy qiymati 8,9 million evro bo‘lgan xorijiy investitsiya hisobiga 65 turdagi 343 dona zamonaviy tibbiy jihoz bilan ta’minlandi.

Turizm viloyat iqtisodiyotining yangi o‘sinh nuqtasidir. Bugungi kunda turizm nafaqat madaniy-ma’rifiy sohaning bir qismi, balki iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. 2025-yilda viloyatga 1 million 523 mingdan ziyod xorijiy va 5 million 339 ming mahalliy sayyoh tashrif buyurdi. Bu ko‘rsatkich belgilangan rejadan ancha yuqori bo‘lib, Namanganning turizm xaritasidagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari va xostellar soni ortishi sayyohlarga yanada qulay shart-sharoitlarni yaratmoqda. Ayniqsa, Kosonsoy, Pop, Chust, Chortoq va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida tashkil etilgan kapsula uylar, o‘tovlar, kempinglar va modulli mehmonxonalar ekologik va tog‘ turizmi jozibadorligini oshirdi. Bu hududlar bugungi kunda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun eng qiziqarli manzillardan biriga aylanmoqda.

Prezidentimizning gullar festivali haqida gapirib, “...bu bayram namanganliklar hayotiga singib, yaxshi an’angaga aylanib qolgani bejiz emas. Nega deganda, gulu rayhonni, go‘zallikni yaxshi ko‘radigan va shunday obodlikni o‘z qo‘li bilan yaratadigan odamlarning qalbi ham go‘zal bo‘ladi”, degan so‘zlari butun Namangan ahli uchun yuksak e’tirof va katta ishonch namunasi bo‘ldi. Endi xalqaro gullar festivali Namanganning tashrif qog‘oziga aylandi.

Bu festival 2018-yildan boshlab xalqaro maqomga ega bo‘ldi va bugun dunyoning turli mamlakatlardan mehmonlarni o‘ziga jalb etayotgan yirik xalqaro tadbir sifatida tantanali ravishda o‘tkazib kelinmoqda.

Joriy yilgi 65-xalqaro gullar festivali ochilish marosimining o‘zida 513 ming mahalliy va 6385 xorijiy mehmon ishtirok etgani tadbimning xalqaro nufuzi va islohotlarning amaliy samarasini yaqqol namoyon etmoqda.

Festival doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida Guinness World Records tashkiloti rasmiy vakili Sheyda Subasi xonim tomonidan e’lon qilingan e’tirofni alohida ta’kidlash zarur.

Sheyda Subasi xonim Guinness kitobi tomonidan belgilangan minimal talab 1 million tup guldin iborat bo‘lganini, Namangan viloyati esa bir oy mobaynida bir hududda 29 million 406 ming 384 tup gul ekilib, ushbu ko‘rsatkichni bir necha o‘n barobar ortda qoldirganini katta hayrat va hurmat bilan qayd etdi. Natijada viloyatimiz “Bir oy davomida jamoa tomonidan ekilgan eng ko‘p gullar” nominatsiyasi bo‘yicha g‘olib topildi.

Bu yilgi gullar festivalini mutlaqo yangicha yondashuv asosida tashkil etdik. Ilk bor viloyatimizdagi barcha 754 ta mahalla festivalning bevosita ishtirokchisiga aylandi.

Festival doirasida xalqaro va respublika miqyosidagi 150 dan ortiq tadbir o‘tkazildi. Xususan, an’anaviy gullar festivali, OFF ROAD, motocross, lavanda sayli, hunarmandlar yarmarkasi va boshqa ko‘plab tadbirlar minglab tomoshabinlarni jalb etdi.

Namanganda hunarmandlikning ko‘p-lab yo‘nalishlari taraqqiy etgan. Xususan, yog‘ochdan xalq hunarmandligi mahsulotlari tayyorlash bilan 577 nafar, metalldan buyumlar yasash bilan 462 nafar, tikuvchilik va gul bosilgan gazlamalar ishlab chiqarish bilan 336 nafar usta shug‘ullanmoqda. Milliy liboslar, poyabzallar va mualliflik mebellari tayyorlash bo‘yicha ham o‘ziga xos maktab shakllangan.

Hunarmandlarimizning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati e’tiborga loyiq. Qo‘qon shahrida o‘tkazilgan Xalqaro hunarmandlik festivalida kashtachi usta Hakim Tojiboyev g‘oliblikni qo‘lga kiritib, 5 ming doliq miqdoridagi mukofot bilan taqdirlandi.

Sanoatni rivojlantirish maqsadida 73 ta kichik sanoat zonasi va 2 ta erkin iqtisodiy zona tashkil etildi. Bu hududlarda investorlar uchun qulay sharoitlar yaratib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Viloyat iqtisodiyoti jadal sur’atlarda o‘smoqda. Agar 2017-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 18,6 trillion so‘m bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 85,4 trillion so‘mga etdi. Bu esa iqtisodiy salohiyatimiz 4,5 barobar oshganini anglatadi.

Hududiy investitsiya dasturi doirasida 813 ta yangi loyihani amalga oshirish orqali qariyb 38 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Joriy yilda yalpi hududiy mahsulot hajmini 100,9 trillion so‘mga etkazish, byudjetga 4,8 trillion so‘m jalb qilish, 80 ming kishini doimiy ish bilan ta’minlash va aholi daromadlarini oshirishni rejalashtirganimiz.

2026-yil 13-mart kuni davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan maxsus videoselektor yig‘ilishida ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

“Ijro intizomini kuchaytirish — qat’iy talab” tamoyili asosida farmon va qarorlar, shuningdek, joylarda berilayotgan topshiriqlar ijrosi ustidan nazorat tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqilishi ta’kidlandi.

Ijro intizomining bosh mezonini oddiy fuqaroning davlat idorasidan va qabul qilingan qonunlardan roziligidir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, intizom bor joyda baraka bo‘ladi, natija bo‘ladi. Ijro intizomi shunchaki xizmat vazifasi emas, balki xalq va Prezident oldidagi farzandlik va vijdon ishidir.

Prezidentimiz 2026-yil 24-aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilishda yilning dastlabki uch oyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar sarhisob qililib, global geosiyosiy va iqtisodiy tebranishlar sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sinhini ta’minlash choralari belgilab berildi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida “Sayyunobod”, “Uychi” va “Zarbdor” tajribalari asosida xonadonbay ishlash, aholining tomoqardan daromad olishini yo‘lga qo‘yish hamda o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarni rasmiy sektorga o‘tkazish orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 1-chorakdagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi va yil yakunigacha bajarilishi shart bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘zimizga belgilab oldik.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida barcha shahar va tumanlarda, mahallalarda bayramga puxta tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

Namangan viloyatida ham mustaqilligimizning 35 yilligi bayram tadbirlari “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida munosib nishonlanadi.

Viloyatimizdagi 14 ta shahar va tuman markazi, 754 ta mahalla bayram bilan qamrab olinadi. Mustaqillik bayrami tadbirlari g‘oyaviy-badiiy konspeksiyaning ma’no-mazmuni va yo‘nalishlari asosida tegishli chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Faoliyatimizdan chiqqan asosiy xulosamiz shu bo‘ldiki, ijro intizomi yangi O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar talabi, bugungi o‘zgarishlar asosidir.

Shu boisi, viloyatimizda har bir sohaga oid topshiriqlar ijrosini ta’minlashda barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarni doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini oshirib borish, tartib-intizomga qat’iy rioya etgan holda shaxsiy mas’uliyatini yuksaltirish ustuvor vazifa hisoblanadi.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Salomatlik – boylik

DORI NI O'ZBOSHIMCHALIK BILAN QO'LLASH NING ASORATLARI XAVOTIRLI

So'nggi yillarda tibbiy amaliyotga yangi, samarasi yuqori dorilar kirib kelmog'ga. Bu kasalliklarning oldini olish yoki davolashda qo'l kelishi barobarida dori-darmonlardan xavfsiz foydalanishni taqozo etayotir. Zero, dorini o'zboshimchalik bilan qo'llash, shifokor tavsiyasiz o'z bilganicha davolanish bilan bog'liq asoratlari juda xavotirli.

Bu asoratlari ba'zan asosiy kasallikni sezilarli darajada yomonlashtirishi, ayrim hollarda inson salomatligiga jiddiy xavf solishi mumkin. Shu bois, sog'lom tibbiy madaniyatni shakllantirish va o'zboshimchalik bilan davolanishning oldini olish zarurati haqida soha mutaxassislari fikri bilan qiziqdik.

OG'RIQ QOLDIRUVCHI VOSITANI ICHISH HAMMA VAQT HAM TO'G'RI QAROR EMAS

to'g'ri qaror bo'lavermaydi. Chunki og'riq organizmning muhim ogohlantiruvchi signali, og'riq qoldiruvchi vositalar esa kasallik belgilarini vaqtincha yashirib, asl sababini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Misol uchun, oshqozon-ichak muammosi bor bemor og'riq qoldiruvchi dorilardan foydalanganda gastrit yoki boshqa yara rivojlanishi ehtimoli katta. Agar bemorni appenditsit yoki o't qopidagi tosh bezovta qilayotgan bo'lsa, dori muayyan vaqt og'riqni qoldirishi, appenditsitda chuvalchangsimon o'simta, tosh xuruji tufayli o't qopi yorilishi ro'y berishi mumkin. Umuman, appenditsit, o'tkir xolitsist, ichak tutilishi yoki shoshilinch jarrohlik talab qilinadigan boshqa kasalliklarda og'riqning kamayishi bemorni ham, shifokorni ham chalg'itadi, bu esa tashxis kechikishi, kasallikning og'irlashishi va boshqa asoratlari rivojlanishiga sabab bo'ladi.

O'tkir respirator virusli infeksiya qish oylarida tez-tez uchraydi. Ko'pchilik o'z vaqtida shifokorga murojaat qilmay, o'zboshimchalik bilan antibiotik qabul qiladi. Antibiotik virusga ta'sir qilmaydi. Kasallikni zo'r qitirib yuborish ikkilamchi infeksiya qo'shilishi natijasida o'pka kasalliklariga olib kelishi mumkin. Shamollash kasalliklarida spreylar dori-darmonlardan foydalanishga harakat qilamiz. Spreydan noto'g'ri foydalanish burun shilliq qavatlarini yallig'lanishi yoki boshqa allergik jarayonlar rivojlanishiga sabab bo'lishini istisno qila olmaymiz.

Ayni paytda dorixonalarda ayrim dorilarni faqat shifokor retsepti asosida berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Shifokor yozgan retsept bilangina dori berilishi davolashda xatolikka yo'l qo'yish ehtimolini kamaytiradi, dori nazorati tartibga solinadi, o'zboshimchalik bilan davolanish barham topadi.

Hatto retseptsiz beriladigan, zarari yo'q deb hisoblanadigan shamollashga

qarshi, og'riq qoldiruvchi, isitma tushuruvchi kukunsimon dorilarni shifokor nazoratsiz qabul qilish tavsiya etilmaydi. Tajribamizda kun davomida 5-6 ta shunday kukunsimon dori qabul qilgach, buyragida toksik zararlanish yuz bergan bemorlar ham bo'lgan. Tahlil natijalari kreatinin moddasining me'yorida 100 barobargacha oshib ketganini ko'rsatgan.

Antibiotiklardan me'yorida ortiq foydalanish organizmdagi zararli bakteriyalar bilan birgalikda kerakli bo'lgan mikroflorani ham yo'qotadi. Oqibatda organizmda disbakterioz kuzatilishi yoki keyinchalik bepustlik paydo bo'lish ehtimoli bor. Tartibsiz ichilgan dori organizmda qaramlikni shakllantiradi. Ayrimlari esa buyrak, jigra va yurak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dori inson salomatligini tiklashda muhim o'rin tutsa-da, undan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

YURAKKA XIYONAT

Aziz ESANOV,
Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bo'lim mudiri:

— Qon bosimi tez-tez ko'tarilishi xalqimiz orasida ko'p uchraydigan kasalliklardan. Qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' tavsiyasi bilan qon bosimini tushiradigan dori ichish oqibatida turli asoratlari bilan shifoxonaga tushgan bemorlar tajribamizda ko'p uchraydi.

Dori dozalarini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish ham yaxshi yondashuv emas. Bemorga tavsiya etilgan dorining samarasi pasayishi bilan bemor shu dorining dozasi kattarog'ini ichishga o'tadi. Yuqori doza boshida bir-ikki kun yaxshi ta'sir qilishi mumkin. Lekin u organizmda ko'proq miqdorda yig'ilganda qon bosimi tushib ketishi yuz beradi. Shifokorga bemorni bu holatdan chiqarib olish uchun bir necha kun kerak bo'ladi, agar kasallik biror asorat, masalan, insult yoki o'tkir buyrak yetishmovchiligi bilan tugamasa.

Arterial qon bosimini me'yorida ushlab turish uchun beriladigan dorilarni o'z xavfida ichmaslik ham yaxshilikka olib kelmaydi. Pala-partish ichilganda organizmda shu doriga ko'nikish boshlanadi. Bu esa dorining samarasi pasayishiga olib keladi.

Bundan tashkari, qon suyultiradigan dorilar bor. Ular qon tomirida tiqin (tromb) hosil bo'lishining oldini oladi. Bu dorilarni och qoriniga ichish tavsiya etilmaydi, chunki och qoriniga ichilganda oshqozonda muammo tug'diradi. Avval gastritga, keyin yaraga, so'ng esa o'sha yaradan qon ketishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu dorilar, albatta, shifokor tavsiyasi bilan, kechki ovqatdan keyin qabul qilinsa, nojo'ya ta'siri kuzatilmaydi.

Shifokor tayinlagan dorini palapartish, tizimsiz va o'zboshimchalik bilan qabul qilish davolanish samarasini yo'qqa chiqaribgina qolmay, hayot uchun to'g'ridan to'g'ri xavf tug'diruvchi omil hamdir. Yurak-qon tomir tizimi dorining qondagi doimiy konsentratsiyasiga (miqdoriga) juda sezuvchan bo'lib, uzilishlar jiddiy asoratlarni keltirib chiqaradi. Aksariyat hollarda qon bosimi me'yorlashgan bemor “endi tuzaldim” degan noto'g'ri xayolga boradi va dorini ichishni to'xtatadi. Bu eng ko'p tarqalgan va xavfli xatodir. Masalan, beta-blokatorlar yoki gipotenziv dorilar organizmdagi muayyan retseptorlarni to'sib, tomirlarni kengaytiradi va yurak urishini, arterial qon bosimini me'yorlashtirib turadi. Dori ichish to'satdan to'xtatilganda, ushbu retseptorlar “ochlik” holatiga tushadi va stress gormonlariga (adrenalin, noradrenalin) o'ta sezuvchan bo'lib qoladi. Natijada qon bosimi dori ichishni boshlashdan oldingi holatdan ham yuqoriroq — keskin va boshqarib bo'lmaydigan darajada ko'tarilib ketadi. Bu holat tibbiyotda gipertonik kriz deb ataladi va u ichki a'zolarning (miya, yurak, buyrak) o'tkir shikastlanishi bilan kechadi.



Surunkali yurak yetishmovchiligi bor bemorlarning yuragi shundoq ham zaiflashgan va zo'riqish bilan ishlayotgan bo'ladi. Dorilar yurakning ishini yengillashtirish, tomirlar qarshiligini kamaytirish va ortiqcha suyuqlikni haydash uchun tayinlanadi. Ularni ham shifokor tavsiyasi va nazorati ostida o'z vaqtida qabul qilish lozim. Yurakning qisqarishi uning ichidagi nozik elektr impulsleri va kaliy, magniy, kalsiy kabi elektrolitlar muvozanatiga bog'liq. Aritmiyaga qarshi dorilar mana shu tizimni barqaror ushlab turadi. Dorini qabul qilishda uzilishlar bo'lganda yurak mushaklarining elektr barqarorligi yo'qoladi. Bu, ayniqsa, yurak ishemik kasalligi yoki infarkt o'tkazgan bemorlarda juda xavfli. Yurak birdaniga juda tez (taxikardiya) yoki butunlay tartibsiz ura boshlaydi. Eng dahshatli oqibati qorinchalar fibrillatsiyasi bo'lib, bunda yurak qon haydash o'rniiga shunchaki titrab qoladi. Bu holat bir necha daqiqa ichida to'satdan yurak to'xtashiga (klinik o'limga) sabab bo'lishi mumkin. Masalan, konkor va kordaron dorini o'zboshimchalik bilan to'xtatib qo'yish shunday asoratlarga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda dorilarga nisbatan rezistentlik (chidamlilik) shakllanadi va bu davolanishni qiyinlashtiradi.

Inson organizmi moslashuvchan tizim bo'lib, dorilarning palapartish berilishiga nisbatan salbiy moslashish reaksiyasini ishgat tushirishi mumkin. Dori bir kun ichilib, ikki kun ichilmasa, organizm retseptorlari dorining molekulariga “ko'nikib” qoladi yoki unga javoban qo'shimcha retseptorlar ishlab chiqarishni boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan ilgari bemorga juda yaxshi ta'sir qilgan va qon bosimini tushirgan oddiy dozalar umuman ta'sir qilmay qo'yadi. Natijada shifokor dorilar dozasi oshirishga yoki bemorga bir vaqtning o'zida 3-4 xil kuchliroq dori kombinatsiyasini tayinlashga majbur bo'ladi. Bu esa jigra va buyraklarga tushadigan yuklamani oshirib, davolanish xarajatlari karrasiga ko'paytiradi.

Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olishda, albatta, sog'lom turmush tarzining roli bor. Uning asosiy tamoyillaridan biri me'yoriy uyqu bo'lsa, ikkinchisi jismoniy faollik. Ko'proq yurishni odat qiling. Bir kunda 4 marotaba 10 daqiqadan piyoda yursangiz, qon bosimingiz me'yorda bo'ladi. Tushkunlikni yengish uchun vaqtigizni ayamang. 35 daqiqa toza havoda sayr qilganziz bas. Bu qon bosimingizni me'yorda saqlash va bo'lar-bo'lmasga dori ichishni to'xtatishga yordam beradi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri
Risolat MADIYEVA tayyorladi.



Akmal ABDUXALILOV,
Milliy tibbiyot markazi shifokori, terapevt:

— Farmatsevt tavsiyasi yoki internetdagi reklamalarga tayanib o'zboshimchalik bilan davolanayotgan yurtodoshlarimiz ko'pligi shifokor sifatida meni tashvishlantiradi. Biror a'zoda bezovtalik kuzatilyotgan bo'lsa, darrov og'riq qoldiruvchi preparatlarga yopishish kerak emas. Bu hamma vaqt ham

TIBBIYOT SOHASIDA HAR QANDAY MA'LUMOTNI TANQIDIY BAHOOLASH MUHIM

Sevara FAXRIDDINOVA,
tibbiyot fanlari doktori:

— Bugungi kunda internet insonlar uchun muhim axborot manbai. Biroq tibbiyot sohasida har qanday ma'lumotni tanqidiy baholash juda muhim. Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ko'plab tavsiyalar ilmiy asosga ega emas yoki muayyan bemorning holatiga mos kelmaydi. Ko'p hollarda insonlar internetda o'qigan ma'lumotlar yoki tanishlari tajribasiga tayanib dori qabul qilishni boshlaydi. Ammo har bir organizm individualdir. Bir insonga foyda bergan preparat boshqa inson uchun jiddiy asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun internet ma'lumotlari shifokor qabuli o'rni bosmasligi kerak. Har qanday dorini qabul qilishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashish eng to'g'ri qaror. Qalqonsimon bez gormonlari organizmdagi moddalar almashinuvini boshqaruvchi muhim biologik moddadir. Demak, ularning miqdoridagi har qanday o'zgarish butun organizm faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Taassufki, ba'zi insonlar tahlikasiz yoki shifokor tavsiyasiz levotiroksin kabi preparatlarni qabul qilishni boshlaydi. Bu organizmda sun'iy tireotoksikoz keltirib chiqarishi mumkin. Oqibatda bemorda yurak urishi tezlashishi, aritmiya, asabiyluk, qo'l titrashi, uyqusizlik, terlash va vazn yo'qotish kuzatiladi. Uzoq muddat yuqori dozalarda qabul qilinganda suyak to'qimasi yemirilib, osteoporoz rivojlanishi ehtimoli bor.

Ayniqsa, yoshi katta bemorlarda yurak ritmi buzilishi insult va yurak yetishmovchiligi xavfini oshiradi. Shuning uchun qalqonsimon bez gormonlari faqat aniq ko'rsatmalar bo'lganda va tahlillar asosida qabul qilinishi lozim.

So'nggi yillarda vazn tashlash maqsadida gormonal preparatlardan foydalanish ko'p kuzatilmoqda. Bu mutlaqo noto'g'ri va xavfli yondashuv.

Qalqonsimon bez gormonlari moddalar almashinuvini tezlashtiradi. Shu sababli ayrim insonlar ularni qabul qilganda vazn kamayishini kuzatib, buni samarali usul deb hisoblaydi. Lekin bu sog'lom vazn yo'qotish emas. Bunday holatda organizm ortiqcha yuklama ostida ishlay boshlaydi. Yurak tez uradi, qon bosimi oshadi, mushaklar yemiriladi, suyak to'qimasi zaiflashadi.

Sog'lom vazn tashlashning asosi to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va zarur hollarda mutaxassis tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy usullardir. Gormonlarni vazn tashlash vositasi sifatida qabul qilish sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi. Gormonlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ularning dozasi o'zboshimchalik bilan oshirish yoki kamaytirish og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Qandil diabetni davolashda qo'llaniladigan har bir preparat aniq hisoblangan dozada

va muayyan sxema bo'yicha qabul qilinishi kerak. Insulin yoki tabletkalar dozasi o'zboshimchalik bilan oshirish gigiglekemiya olib kelishi mumkin. Mazkur holat to'satdan kuchli ochlik hissi, terlash, qo'l titrashi, bosh aylanishi, hushdan ketish va hatto koma bilan namoyon bo'ladi. Aksincha, preparatlar dozasi kamaytirish yoki davolashni to'xtatish qonda qand miqdori yuqori saqlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa diabetik ketoatsidoz, buyrak yetishmovchiligi, ko'rish qobiliyati yo'qolishi, infarkt va insult xavfini oshiradi.

Diabet bemor va shifokorning doimiy hamkorligini talab qiluvchi kasallikdir. Ko'pchilik bemorlar dorivor giyohlar, turli damlamalar yoki xalqona usullar diabetni to'liq davolay oladi deb hisoblaydi. Bu esa eng keng tarqalgan va xavfli noto'g'ri qarashlardan biri.

Hozirgi kungacha hech bir xalq tabobati usuli insulin yoki zamonaviy qand tushiruvchi preparatlarni o'rinni bosishi isbotlanmagan. Bemor asosiy davolashni to'xtatib, faqat xalqona vositalarga ishonsa, qonda qand miqdori nazoratdan chiqib ketadi. Natijada ko'z, buyrak, asab tizimi va yurak-qon tomirida qaytarilmas asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Xalq tabobati vositalari ba'zi hollarda shifokor tavsiyasi bilan qo'shimcha usul sifatida qo'llanilishi mumkin, ammo asosiy davolashni almashtirmasligi kerak.



Gormonal preparatlar inson organizmidagi eng muhim boshqaruv tizimlaridan biriga ta'sir qiladi. Shu sababli ularni nazoratsiz qabul qilish yoki to'satdan bekor qilish jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Gormonlarni noto'g'ri qabul qilish tufayli moddalar almashinuvini buzilishi, semirish, qandli diabet, immunitet pasayishi, osteoporoz va reproduktiv salomatlik bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi ehtimoli bor.

Ayniqsa, glyukokortikoid preparatlarni uzoq muddat qabul qilib, keyin to'satdan to'xtatish xavfli. Bu holatda buyrak usti bezi faoliyati keskin pasayib, hayot uchun xavfli bo'lgan adrenal kriz rivojlanishi mumkin. Shuning uchun gormonal preparatlarni qabul qilishni boshlash ham, to'xtatish ham faqat shifokor nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.



Ta'lim odimlari

Musobaqa joriy yilning 10–19-iyul kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadi. Olimpiadada dunyoning 90 dan ortiq mamlakatidan eng iqtidorli maktab o'quvchilari ishtirok etishi kutilmoqda. Ishtirokchilar nazariy va amaliy yo'nalishlarda o'z bilimlari, mantiqiy fikrlashi hamda ilmiy tayyorgarligini sinovdan o'tkazadi.

Sir emas, jahonning eng yirik ilmiy markazlarida faoliyat yuritayotgan ko'plab olimlarning ilm yo'lidagi ilk jiddiy qadamlari aynan maktab davriga to'g'ri kelgan. Xalqaro fan olimpiadalari esa ana shu iste'dodlarni erta kashf etadigan nufuzli platformadir. 1968-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan Xalqaro kimyo olimpiadasi yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida

dunyoning eng iqtidorli yosh kimyogarlarini yagona maqsad atrofida birlashtiradi.

Shubhasiz, bunday olimpiadaga mezbonlik qilish ham katta mas'uliyat. Musobaqa mezbonini tanlashda xalqaro tashkilotchilar birinchi galda mamlakatning ilmiy-ta'lim muhiti, tashkiliy salohiyati va infratuzilmasiga baho beradi. Nazariy hamda amaliy sinovlarni xalqaro talablar darajasida tashkil etish, zamonaviy laboratoriyalar, yuzlab ishtirokchi va ekspertlarni qabul qilish imkoniyati, xavfsizlik va logistika kabi omillar ko'rib chiqiladi. Shu nuqtayi nazardan, navbatdagi Xalqaro kimyo olimpiadasining yurtimizda o'tkazilayotgani bejiz emas.

E'tiborlisi, ilk bor Markaziy Osiyo davlatlari ichida aynan O'zbekistonga ushbu nufuzli olimpiadaga mezbonlik qilish huquqi ishonib topshirildi. Ushbu ishonch birgina tadbirni puxta tashkil etish imkoniyatigina emas, ta'lim tizimida so'nggi yillarda yuz bergan sifat o'zgarishlariga ham dalildir,



desak yangilashmaymiz. Negaki bugun iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni qo'llab-quvvatlash va xalqaro fan olimpiadalariga maqsadli

tayyorlash davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan. Xususan, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni

aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Hujjat asosida iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash, milliy terma jamoalarni professional tayyorlash, ustozlar mehnatini rag'batlantirish va xalqaro olimpiadalar g'oliblarini qo'llab-quvvatlashning yaxlit tizimi shakllantirildi.

Bunday yondashuvning samarasi xalqaro maydondagi natijalarda ham allaqachon o'z aksini topayti. O'zbekiston jamoasi Xalqaro kimyo olimpiadalarida shu paytgacha 8 ta oltin, 15 ta kumush va 21 ta bronza medalni qo'lga kiritgan. Ayniqsa, 2025-yilda Dubay shahrida o'tkazilgan 57-Xalqaro kimyo olimpiadasida jamoamizning barcha to'rt nafar a'zosi g'oliblik bilan qaytgani — 2 ta oltin va 2 ta kumush medalni qo'lga kiritgani mamlakatimizda qaror topayotgan yangi ilmiy muhitning amaliy natijasi bo'ldi.

Shu bois, Toshkent mezbonlik qilayotgan 58-Xalqaro kimyo olimpiadasi O'zbekistonning

ilm-fan va ta'lim sohasida bosib o'tayotgan yo'lining mantiqiy davomi hamdir. Eng muhimi, bu nufuzli musobaqa mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash bilan birga ilm yo'lini tanlab, undan og'ishmay borayotgan minglab yoshlar uchun ham katta ruhiy turkib bo'lib xizmat qiladi.

Bugun olimpiada doirasidagi amaliy sinovlar o'tkazilishi rejalashtirilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti laboratoriyalari dunyoning eng iqtidorli yosh kimyogarlarini birlashtirayotgan bo'lsa, ertaga ular ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi g'oyalari, innovatsion ishlarni muhim kashfiyotlar muallifiga aylanishi mumkin. Balki ularning orasida kelajakda insoniyat oldidagi murakkab muammolarga yechim topadigan olimlar ham yetishib chiqar. Bunday istiqbol esa ilm-fanga e'tibor, iqtidorlarni qadrlash va yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlarning eng qimmatli, qiymatli samarasidir.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

ILM-FAN OLAMI ISHONCHINING MILLIY FORMULASI O'zbekiston 58-Xalqaro kimyo olimpiadasiga mezbonlik qilmoqda

Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumining Toshkent, Samarqand va Termizda o'tayotgani oddiy tashkiliy tanlov emas. Bu shaharlar islom ma'rifati tarixida o'z o'rniga ega. Forumning shu manzillarda o'tkazilishi yangi O'zbekistonning tarixiy merosga faqat xotira sifatida emas, taraqqiyotga xizmat qiladigan omil sifatida qarashidan darakdir.



Abdulhamid MUXTOROV, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Qirqdan ortiq mamlakatdan kelgan davlat va jamoat arboblari, ulamo, tadqiqotchi, xalqaro tashkilot, sunay va kutubxonalar vakillarini bir joyga jamlagan bu forumni oddiy anjumanlar qatoriga qo'shib bo'lmaydi. Bu yerda gap faqat ma'ruza, uchrashuv yoki ilmiy bahslar haqida ketayotgani yo'q.

Gap O'zbekistonning ajdodlar qoldirgan merosni jahonga qayta tanitayotgani, islom sivilizatsiyasining asl qiyofasi — ilm, ma'rifat, insonparvarlik va bunyodkorlik ekanini asosli dalillar bilan ko'rsatishga bo'lgan irodasi haqida ketmoqda.

Ta'bir joiz bo'lsa, mazkur forumni bugungi dunyoga tutilgan ma'rifat ko'zgusi deyish mumkin. Bu ko'zguda bir tomondan, jahonning hozirgi tahlikali manzarasi: urushlar, radikallasuv, diniy toqatsizlik, islomofobiya, madaniyatlar o'rtasida barpo etilgan sun'iy devorlar ko'rinadi. Ikkinchi tomondan esa, shu tahlikali manzara qarshisida ilm, bag'rikenglik, tarixiy xotira va inson qadriga tayangan yangi O'zbekiston siyosati namoyon bo'ladi.

Bu jarayonni kuzatgan kishi, tabiiyki, bir savolga javob izlaydi: xo'sh, forumning asl siyosiy-ma'rifiy mohiyati nimada? Birinchidan, O'zbekiston yetakchisi islom sivilizatsiyasini tor diniy tushuncha sifatida emas, insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan tamaddun sifatida talqin qilmoqda. Ikkinchidan, bu merosni faqat o'tmish faxrigina emas, bugungi va kelajak avlodni tarbiyalashga xizmat qiladigan jonli ma'naviy resurs sifatida ko'rmoqda. Uchinchidan, mazkur jarayon O'zbekiston insonparvar siyosatining tabiiy ko'rinishi.

Bu uch haqiqatni anglangan kishi, o'z-o'zidan quyidagi xulosaga kelishi shubhasiz: islom sivilizatsiyasining buyukligi faqat masjid, madrasa, gumbaz yoki qo'lyozmalarda emas. Uning buyukligi insonni ilimga chorlaganida,

Har bir xalq o'z tarixini ulug'laydi. Ammo hamma xalq ham o'z tarixini bugunning umidbaxsh siyosatiga aylantira olmaydi. O'zbekiston esa ana shunday murakkab, ammo sharaflı yo'ldan bormoqda.

Madaniy meros



KO'HNA MA'RIFATNING BOQIY SADOSI

yoxud Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumidan xulosalar

haqiqatni izlashga undaganida, aqlni e'tiqod bilan, axloqni davlatchilik bilan, ma'rifatni ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtira olganida.

Shu ma'noda, ko'hna Turon tamaddunining o'q ildizlaridan biri bo'lgan Imom Buxoriy merosini hadis ilmi tarixidan iborat deb xulosa chiqarmaslik lozim. U manbaga nisbatan mas'uliyat, so'zga nisbatan halollik, dalilga nisbatan sadoqat maktabi hamdir.

Imom Moturidiy merosi faqat aqidaviy ta'limot emas. U aql va e'tiqod o'rtasidagi muvozanat, mo'tadillik va ma'naviy barqarorlik mezonı.

Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek merosi shunchaki ilmiy kashfiyotlar majmuasi emas. U inson aqlining imkoniyatlariga nisbatan ishonch, ilm orqali dunyo sirlarini anglash, davlat va tafakkur o'rtasidagi mustahkam bog'liqlik timsoli desak, aslo yangilishmaymiz.

Aminimizki, bu muhtasham anjuman unda ishtirok etgan olimlar, tadqiqotchilar va ekspertlar xotirasida izsiz qolmaydi. U ishtirokchilarni o'ylanitirib kelgan savollarga javob topishga, yangi tadqiqotlar va hamkorliklar uchun yo'l ochishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz ilgari surayotgan "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi o'zining umumbashariy ahamiyatini yanada yaqqol namoyon etayotgani ushbu forumda qatnashayotgan yuzlab ekspertlar tomonidan yakdillik bilan e'tirof etilmoqda. Negaki, bu g'oya muammoning ildiziga boradi. Inson qalbi va ongida bo'shliq qolmaydi. Uni yo ma'rifat to'ldiradi, yoki yot g'oyalr. Yo tarixiy xotira to'ldiradi, yo buzg'unchi mafkuralar. Yo sog'lom e'tiqod to'ldiradi, yo mutaassiblik egallaydi. Radikalizmga qarshi faqat keskin choralar bilan emas, avvalo, bilim, tarbiya, sog'lom e'tiqod, tarixiy xotira va ma'naviy immunitet bilan kurashish lozim.

Siyosiy irodaning ma'rifiy ifodasi

E'tirof etish kerakki, tarixiy merosga munosabat har bir davlatda har xil bo'ladi. Ayrimlar tarixni faqat tantanali marosimlarda eslaydi. Ayrimlar



uni sayyohlik obyektiga aylantiradi. Ayrimlar esa o'tmish bilan faxrlanadi, ammo uni bugungi taraqqiyotga xizmat qildiradi olmaydi.

Yangi O'zbekiston tajribasining farqi shundaki, bu yerda tarixiy meros davlat siyosati, ta'lim, tarbiya, ilmiy tadqiqot, xalqaro muloqot va yoshlar ma'naviyati bilan bog'lanayotir.

Bu jarayonni oddiy obodonlashtirish, ta'mirlash yoki tarixiy yodgorliklarni chiroyli ko'rinishga keltirish deb tushunish ham xato. Aslida, bu intellektual merosni zamonaviy davlatchilik siyosatiga aylantirish jarayoni. Shu bois, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bugunga kelib milliy o'zlik, tarixiy xotira, ma'rifat, ta'lim va ilmiy tadqiqotni bir-biriga bog'laydigan katta ma'rifiy maydon sifatida shakllanmoqda.

Davlatimiz rahbari forum ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida bu markazni "ochiq intellektual makon" sifatida baholab, uni ilmfanni rivojlantirish, umuminsoniy qadriyatlarini asrash va kelgusi avlodlarga yetkazishga xizmat qiladigan maskan sifatida ko'rsatdi. Bu ta'rifda

O'zbekiston siyosatining mazmuni bor: ochiqlik, ilm, insonparvarlik, meros va kelajak.

Demak, bu markaz xalqning o'zligini anglash maktabi. Yosh avlod uchun tarixiy xotira darsxonasi. Olimlar uchun tadqiqot maydoni. Xorijiy mutaxassislar uchun muloqot imkonı. U — butun dunyoga O'zbekistonning ma'rifiy qiyofasini ko'rsatadigan madaniy diplomatiya markazidir.

Aslida, bu yerda eng muhim nuqta shu.

Forum — bir kunlik tadbir emas

Xo'sh, ushbu forum nimasi bilan tarixiy ahamiyatga ega?

Avvalo, u O'zbekistonni islom sivilizatsiyasini o'rganish, asrash va targ'ib qilish bo'yicha xalqaro maydonning faol tashabbuskoriga aylantirmoqda. Qolaversa, forum doirasida muhokama qilingan mavzular, jumladan, qo'lyozmashunoslik, muzeyshunoslik, madaniy meros, hadis ilmi,

aqida, kalom, arxeologiya, madaniy diplomatiya yo'nalishlari islom sivilizatsiyasining faqat diniy emas, balki keng ilmiy-gumanitar hodisa ekanini ham ko'rsatadi.

Bu esa juda muhim. Chunki islomning ilmiy, axloqiy, insonparvar mohiyatini tizimli va dalilli tarzda o'rganishga bo'lgan ehtiyoj bugun har qachongidan ham katta. Zero, islom haqidagi noto'g'ri tasavvurlar, g'arazli talqinlar va sun'iy ravishda tarqatilayotgan salbiy qarashlarga qarshi eng ishonchli javob uning asl ma'rifiy qiyofasini ilm, manba va tarixiy haqiqat asosida ko'rsatishdir.

Negaki, islomni zo'raonlik bilan bog'lashga urinayotganlar bor. Islomni siyosiy qarama-qarshiliklar quriliga aylantirmoqchi bo'layotganlar, islom sivilizatsiyasining buyuk ilmiy merosini bilmagani uchun uni tor tasavvurlar doirasida baholaydiganlar bor.

O'zbekiston ana shu noto'g'ri tasavvurlar qarshisiga Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Ulug'bek, Marg'inoniy kabi ilm, aql, axloq, huquq va ma'rifat namoyandalari olib chiqmoqda. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan beriladigan eng munosib javob shunday bo'lishi kerak, aslida.

O'zlikni anglash saodati

Har bir xalq o'z tarixini ulug'laydi. Ammo hamma xalq ham o'z tarixini bugunning umidbaxsh siyosatiga aylantira olmaydi. O'zbekiston esa ana shunday murakkab, ammo sharaflı yo'ldan bormoqda.

Samarqand, Buxoro, Termiz, Xorazm, Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent shaharlari faqat geografik nomlar emas. Ular asrlar davomida ilm, ma'rifat, hunar, davlatchilik va diniy tafakkur shakllangan qadimiy markazlardir.

Bu shaharlardan taralgan ilm nafaqat musulmon olamini, balki butun insoniyat tafakkurini boyitgan. Xorazmiy-siz zamonaviy algoritmlarni tasavvur qilish qiyin. Ibn Sinosiz jahon tibbiyoti tarixini to'liq anglash mushkul. Beruniysiz qiyosiy



ilm, tabiatni kuzatish va ilmiy xolislik haqidagi tasavvur kemtik. Ulug'beksiz astronomiya tarixi, Imom Buxoriysiz hadis ilmi, Imom Moturidiysiz aqida ilmi haqidagi tushunchalar to'liq bo'lmaydi. O'zbekiston bu merosni dunyoga ko'z-ko'z qilar ekan, "buyuklar faqat bizda bo'lgan" demoqchi emas. U dunyoga boshqa bir haqiqatni aytmoqda: bu meros insoniyatga bugun ham xizmat qilishi mumkin. Bu meros jamiyatga ma'naviy immunitet bera oladi. Bu meros dunyoga islomning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadi...

Shuning uchun ham Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi bir martalik anjuman emas. U tarixiy xotirani xalqaro muloqotga, milliy merosni umuminsoniy qadriyatga, diniy ma'rifatni tinchlik va hamjihatlik g'oyasiga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir.

Yaxshilik so'zda emas, amalda ko'rinadi

Agar tahlil nuqtayi nazaridan e'tibor qilinsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan siyosatning muhim xususiyati shundaki, ichki islohotlar bilan tashqi tashabbuslar o'rtasida uyg'unlik bor.

Mamlakat ichida inson qadri, ta'lim, ma'rifat, diniy bag'rikenglik, tarixiy meros, yoshlar tarbiyasi haqida ko'p gapiriladi. Xalqaro maydonda esa tinchlik, muloqot, madaniyatlararo ishonch, ilm-fan, bag'rikenglik va insonparvarlik tashabbuslari ilgari suriladi. Bu ikki yo'nalish bir-biridan aslo ajralgan emas. Aksincha, biri hamisha ikkinchisini to'ldiradi.

O'z tarixini hurmat qilgan davlatgina boshqa xalqlar merosiga hurmat bilan qaraydi. O'z fuqarosini qadrlagan davlat jahon hamjamiyatiga insonparvar g'oyalarni taklif eta oladi.

Mana shu jihatdan qaraganda, Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi navbatdagi yirik ma'naviy hodisasi bo'ldi. Bu hodisani kuzatar ekanimiz, shunday xulosaga kelamiz: O'zbekiston jaholatga qarshi ma'rifat bilan, nafratga qarshi bag'rikenglik bilan, tarixiy loqaydlikka qarshi o'zlikni anglash bilan, sivilizatsiyalar o'qnashuvi haqidagi xavotirlarga qarshi sivilizatsiyalararo muloqot bilan javob bermokda.

Bu hodisaning mazmunini bir so'z bilan ifodalash mumkin: EZGULIK.

Bu — inson qadriini ulug'lagan, ma'rifatni davlat taraqqiyotining ustuni deb bilgan siyosatning biz ko'rib turgan yorqin qiyofasidir.

Unutmaylik, islom sivilizatsiyasi haqida so'z o'chilganda, biz faqat o'tmishdagi buyuk allomaları eslamaymiz. Biz O'zbekistonda bu buyuk merosning xalq ongi va davlat siyosatida qayta qad rostlayotganini ko'ramiz.

Shu bois, ushbu forum ko'hna ma'rifatning boqiy sadosi sifatida biz uchun qadrdır. Bu sado bugun Toshkent, Samarqand va Termizdan turib, dunyoga ilm, bag'rikenglik va insonparvarlik haqida mujda bermokda.

Zamonamiz qahramonlari

AYOLGA BAXT BERING, SAODAT BERING

Ayol — ona, umr yo'ldosh, jamiyat tayanchi. U bir paytning o'zida zimmasidagi shuncha vazifa, mas'uliyatni bajarish uchun kuchni qaymardan oladi? Bitmas-tuganmas mehr, so'nmas g'ayrat, kuch-qudratni nozik vujudiga qanday sig'diradi?! Bugun jamiyatimizning oldingi safidagi, ko'pchilikka o'rnak bo'ladigan, yuzlab shogirdlarni aytidan ergashtirib kelayotgan zamondoshlarimiz haqida so'z izlashni ko'nglimga tugdim. Zero, ularning hayot yo'li, yutuqlari bunga arzigulik.

Oyimgul Shamuratova to'g'riso'z, adolati, boshlagan ishini oxirigacha yetkazadigan, o'zida insoniy fazilatlarini jamlagan davr qahramoni, desak mubolag'a bo'lmaz. U mashhur yozuvchi Amet Shamuratov va xalq artisti Oyimxon Shamuratovning eng kichik qizi.

Umr yo'ldoshi Sulton Topiboldiyev bilan mashgaqqatli umr so'qmoqlarida topishgan. Ular zamonasining og'ir sinovlariga duch keldi. Ta'qiblar, nohaqlik sabab S.Topiboldiyevning sog'lig'iga putur yetdi. Yillab to'shakka mixlanib yongan vaqtda ham Oyimgul unga g'amxo'rlik bilan qarashga o'zida kuch topdi.

Sulton turmush o'rtog'ining ota-onasi nomini abadiylashtirish maqsadida "Amet va Oyimxon Shamuratova uy-muzeyi"ni tashkil etishga jazm qildi. Uy-muzeyni faqat ularga tegishli buyumlar bilan to'ldirib qolmay, qoraqalpoqlarning yashash tarziga oid tarixiy eksponatlar bilan ham boyitdi.

O'tgan asrning 50-yillaridan 80-yillargacha bu juftlik foydalangan uy jihozlari, o'sha davrdagi milliy liboslar, uy kutubxonasi muzeyining qimmatli eksponatlaridir.

Oyimgul opa kreativ g'oyalarni amalga oshirishdan to'xtamadi. Ko'pdan beri o'zi orzu qilib yurgan milliy liboslar tikuv xanasi ishga tushirdi, bir qancha chevar ayollarni ishga oldi.

O'zi ingliz tili o'qituvchisi bo'lgani bois, muzey huzurida bog'cha bolalari uchun ingliz va rus tilini o'qitish kurslarini ochdi. Tadbirkorlik mana shu vaqtdan boshlangan edi. Keyinchalik Qoraqalpog'istonda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida 2005-yili Nukus shahrida "Ipak yo'li" mehmonxonasiga asos soldi. Hozir



ushbu mehmonxona qoraqalpoq xalqi tarixi, urf-odatları, madaniyatini o'zida aks ettirgan milliy buyumlar bilan to'ldirilgan va milliylik ruhida bezatilgan.

Albatta, biznes bilan shug'ullangan inson bir joyda turib qolishi mumkin emas. U rivojlanishi, faoliyat ko'lamini kengaytirishi talab etiladi. Shu sabab 2023-yili 55 o'ranga mo'ljallangan zamonaviy mehmonxonani ishga tushirdi. Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mehmonxona yonida sayyohlar uchun avtotransport xizmati ham yo'lga qo'yildi. Unda Qoraqalpog'iston hududidagi tarixiy joylarga sayohat uyushtiriladi.

Bugunga kelib, Oyimgul Shamuratovning farzandlari onasining maslahati va yo'l-yo'rig'i asosida mehmonxona biznesini yuritayapti. Eng asosiy, kichik mehmonxonadan boshlangan biznes katta loyihalarga aylanib ulgurdi.


Ikkinchi qahramonimiz Guliston Davletova nafaqat qoraqalpoq adabiyoti, balki butun turkiy dunyo adabiyotida ham o'z o'miga ega shoira.

Uning "Sening darding bilan yashayman, ayol!" nomli to'plami el orasida mashhur. Ingliz tilini

o'rganishi unga jahon adabiyoti eshigini ochgan bo'lsa, qoraqalpoq tili va adabiyoti o'z madaniyatini yanada chuqur anglash imkonini berdi. Shoiraxalq og'zaki ijodidan tortib, XIX-XXI asr ijodkorlarining

asarlarigacha o'rganib chiqdi. Hali talaba vaqlaridayoq yoshlik lirikasini yaratdi. Bugungacha 150 dan ziyod she'riga kuy bastalangan. G. Davletova "Do'stlik" ordeni sohibi, Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.

Uchinchi qahramonimiz Tamara Masharipova qishloq qizi. Mehnatda toblangan, xushchaqchaq. Qoraqalpoqlarning qadim aytimlarini asarlarida dadil qo'llaydi. Agar zarurat bo'lsa, ayrim yigitlar ham uddalay olmaydigan ishlarga qo'l ura oladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yana bir jihati — tavakkalchi, ortga chekinmas, devpari karakteri bor, ammo uzoqni ko'zlab harakat qiladi. Ilmni igna bilan quduq qazigandek o'rganadi. 2021-yildan beri jurnalistika kafedrası professori vazifasini bajaruvchi.

Tamara Masharipovanning har bir darsini jurnalistika talabalari intiqlik bilan kutadi. U quuruq ma'ruzalar o'qishdan yiroq, darslari jonli va juda qiziqarli. Soha bo'yicha ko'p ma'lumotga ega, ularni hayotiy tajribalar bilan bog'lab o'rgatadi. Yangi noan'anaviy usullar va turli ko'rgazmali vositalardan unumli foydalana biladi. Xullas, bugungi oliy ta'lim talablariga to'liq mos keladi.

Har bir inson jamiyatda o'z o'mini topish uchun hayotning turli so'qmoqlaridan yurib o'tadi. O'z vaqtda T. Masharipova "Yerkin Qaraqalpaqstan" gazetasida muxbir bo'lib ham ishladi. U yozgan qisqa xabarlardan tortib, yirik publististik asarlariga ijtimoiy-madaniy hayotimizning turli sohalarini qamrab olgan edi. Ayol imkon qadar biri ikkinchisiga o'xshamaydigan maqolalar yozishga urindi. Tamara oddiy savdogar, tikuvchi yoki dehqondan boshlab, mashhur shoir-yozuvchilar, olimlar, madaniyat arboblari, o'qituvchi, sportchilar haqida bir-biriga o'xshamaydigan qiziqarli maqolalar yozardi. Uning yozganlarini gazeta o'quvchilari qiziqib o'q'iq, kelgusi sonda chiqadigan maqolalarni kutib o'tirardi.

Tamara Masharipova o'z vaqtda jurnalistikani Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida o'qituvchilik bilan birga olib bordi. Bundan tashqari, "Qoraqalpoq universiteti" gazetası muharriri, universitetning 34-yillik tarixida ilk ilmiy nashr asoschilaridan

biri, jurnalistika kafedrası o'qituvchisi... Xullas, bularni sanayversak ado bo'lmaydi. Eng asosiysi u bu vazifalarni halol va mashgaqqatli mehnat bilan bajarib katta hurmat qozondi.

Oliy o'quv yurtining talabi bo'yicha har bir xodim ilmiy izlanishlar olib borishi kerak. Tamara oilaviy shart-sharoit sabab kechikib



q o l g a n i l m i y

ishini qayta qo'lga olib, kichkina farzandi maktabga borganidan keyin O'z'Muning doktoranturasida o'qidi. Publististika nazariyasi bo'yicha ketma-ket izlanishlar olib bordi. Avvaliga falsafa doktori, keyinchalik fan doktori ilmiy darajasiga erishdi, 2024-yilda professor ilmiy unvoniga munosib deb topildi.

Qoraqalpoq jurnalistikasida publistist sifatida tanilgan, ilmiy-publististik asarlari o'zbek, qozoq, turk, rus, ingliz, qirg'iz tillarida chop etilgan tajribali ustoz shogird tayyorlashni ham e'tibordan qoldirmadi. Uning rahbarligida qator shogirdlar tayyorlandi, endi yozilayotgan dissertatsiyalar ham bor.

Mana uch qahramonimiz hayotidan lavhalar. Ular tom ma'noda jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shayotgan xotin-qizlar. Bugun ularning ko'plab shogirdlari ustozlari ortidan g'urur va ishonch bilan ergashib kelmokda.

Oralxon SAPAROVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrız qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefonı: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefonı: (71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.

29609 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrısabz ko'chasi, 85-uy